



AN'ANAVIY IJROCHILIK USLUBLARINI ZAMONAVIY TALQIN QILISH MASALALARI

Muallif: Esanova Xurshida O'r'albek qizi¹

Affiliatsiya: Guliston Davlat Pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti "Musiqi ta'limi" ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14466015>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'tmish bastakorlari o'zbek mumtoz musiqasining maqom va maqom yo'llariga xos musiqiy namunalarni yaratib, doimo musiqi merosini, yangi-yangi kuy va ashulalar bilan to'ldirib, boyitib kelganliklari, har bir davrda, o'z zamonasini kuylagan, jozibali go'zal kuyashulalar dunyoga kelgani, ularni ijro etgan xonanda-yu sozandalar ham mashxur bo'lganlari, hamda an'anaviy ijrochilik uslublarini zamonaviy talqin qilish masalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: nazzora qil, ey sabo, guluzorim qani, kezarman, qadimgi ushshoq.

Ma'lumki XX asrning birinchi yarmida bastakorlik ijodida zamonaga mos yangi yo'nalishdagi kuy va ashulalar yaratishga juda katta e'tibor qaratildi. To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Faxriddin Sodiqov, Muhammadjon Mirzayev kabi bastakorlar ijodi bunga yorqin misol bo'la oladi. Ijrochilik jarayonida esa Faxriddin Sodiqov, Rihsi Rajabiy, Turg'un Alimatov, Saidjon Kalonov, Mahmudjon Muxammedov, Komiljon Jabborov va G'anijon Toshmatov, kabi bir qator moxir sozandalar va Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Fattoxxon Mamadaliyev, Ochilxon Otaxonov, Orifxon Xotamov, Rasulqori Mamadaliyev, Ortiqxo'ja Imomxo'jayev, Saodat Qobulova kabi betakror xonandalar yetishib chiqqan va ular doimo el ardog'ida bo'lganlar.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, obyektivlik va deduktiv usullaridan foydalanildi. Insoniyat taraqqiyotida musiqi san'atining ahamiyati obyektiv ochib berildi. Madina Nasreddinova, Dilshod Toshaliyev, Durdona Raimjon qizi Murodovalarning "An'anaviy ijrochilik san'atining hozirgi davr muammolari" nomli maqolasi metodologik manba bo'lib belgilandi.

Yangi asrning ilk yillarda an'anaviy musiqi san'atimiz rivojlanmagan deyolmaymiz, lekin ayrim jihatlarga e'tibor berish lozimki, bular musiqi merosimizning uch yo'nalishini tahlil qilib ko'rilmaga yaqqol seziladi. Ya'ni xonandalik, sozandalik va bastakorlik. Musiqi san'atining ijrochilik mezoni ijro amaliyotida sezilarli darajada rivoj topayotganligini kuzatish mumkin. Birinchidan: yosh avlodni an'anaviy ijroga bo'lgan qiziqishi ortdi. Hozirgi "ommaviy madaniyat"ning yoshlar o'rtasida o'ziga hos ta'siri ketayotgan bir paytda, yoshlar orasida an'anaviy musiqani maromiga yetkazib ijro etadigan yosh avlod vakillari shakllandi va ular o'z faoliyatları bilan xalqimizga xizmat

qilib kelmoqdalar. O'tmish ustozlarning xonandalik an'analari, chiroyli tik ovoz, ma'noli va bilimli talqin bilan amalioyotda o'zlarini namoyon etib kelganlar. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Xojixon Boltayev, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov kabi ustoz san'atkorlar ijro an'analari, mumtoz xonandalik an'analari namunasi sifatida bizning avlodga yetib kelgan. Hozirgi yoshlarning ham ushbu san'atni qizg'in holda o'zlashtirishlari quvonarli hol. Ayniqsa, yoshlarning mukammal ovoz talqini va mumtoz musiqiy merosni ustozona shaklda talqin etayotganliklari va bunga katta ahamiyat berayotganliklari e'tirofga loyiq. Bularning natijasi ham iqtidorli xonandalar misolida namoyondir. Bir qarashda an'anaviy ijrochiliik san'ati bir meyorda qadam tashlab, rivojlanib bormoqda desak ham bo'ladi. Lekin, mumtoz musiqanining shakllanish jarayonidagi tamoyillar, qoidalar uning rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatishi kerak. Merosni amaliy o'zlashtirish va ijodiy yondoshish yaxshi an'ana, lekin buning o'zi yetarli emas.

Chunki o'tmish ustozlari o'zlarining ijrochilik yutuqlari bilan birga musiqiy merosni teran anglab, diniy-falsafiy tahlil eta olganlarlar. Buning natijasida ijro namunalarini tinglovchiga ta'sirli yetib borishi va musiqiy savodxonlik yuqori darajada rivojlanib borishiga erishganlar. Ijod, zamonni aks ettiruvchi mezon hisoblanadi. Har bir zamonda musiqiy meros o'ziga hos zamonaviy asarlar bilan boyib kelgan. Ana shu yaratilgan asarlar shu zamonni kuylagan. Bunday musiqalarni shu zamonning moxir sozanda va xonandalari yaratganlar. Musiqiy savodi yuqori, bilimli, musiqa fani bilan bir qatorda tarix va adabiyotni chuqur egallagan ustozlarning o'z zamonasi uchun ijod etgan namunalari ham shunga yarasha o'lmas navolarga aylangan. Demak, an'anaviy xonandalik san'ati rivoji nafaqat musiqiy merosni zamon talabida ijro etish balki talqin qila olish, ya'ni tushunish va tushuntirib bera olish bilan rivojlanadi.

Buning uchun musiqiy merosni o'rganish bilan birga yangi namunalarini yaratishda nazariy bilimlarga tayanish, saviyasi baland, chuqur ma'noga ega, falsafiy negizli asarlar ijod etish lozimdir. Oldingi avlod ijodiga nazar solsak To'xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, Nabijon Hasanov, Imomjon Ikromov, Muhammadjon Mirzayev, Jo'raxon Sultonov, Doni Zokirov, Fattoxxon Mamadaliyev, Orifxon Xotamov kabi yetuk sozanda va xonandalar bastakorlik amallari bilan yangi asarlar yaratganlar. "Etmasmidim", "Nazzora qil", "Yolg'iz", "Ey Sabo", "Guluzorim qani?", "Kezarman", "Qadimgi ushshoq", "Dardu-dilim", "Qoshi yo sinmu deyin" va boshqalar. Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Bular o'z zamonasining shoh asarlaridir. Bu musiqiy namunalar nafaqat xonandalar tomonidan balki, barcha cholg'u sozlarda, orkestr va turli ansambllar talqinida sadolangani barchaga ma'lum. Ularni har bir ijro namunasi o'ziga hos jozibada yangrashi, asarni yangi qirralarini ochib beradi. Shu o'rinda aytish mumkinki mumtoz musiqa namunalarini nafaqat milliy cholg'u sozlarida balki sharq mamlakatlari musiqa asboblari va jahon estrada cholg'ularida ham professional (buzmasdan) ijro etishni qo'llab-quvatlash sohaning rivoji uchun xizmat qiladi.

Hozirgi davrda biz uchun bir maktab hisoblanmish Shavkat Mirzayev, O'lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Abdulahad Abdurashidov, Mahmudjon Tojiboyev, Mashrab Ermatov va Erkin Ro'zimatov ijodiy faoliyatlarini ham har tomonlama ibratlidir. Ularni samarali faoliyatlariga hurmatni saqlagan holda shuni aytish kerakki, baribir zamonani to'laqonli ifodalovchi, tinglovchini tafakkurga chorlovchi kuylar yoki ashulalar yetishmayotgandek. Yaratilayotgan asarlar ko'p lekin, mumtozona darajaga munosib

ijod mahsullari juda kam. Shularni inobatga olib, o'zbek musiqasining bugungi kundagi to'laqonli rivoji uchun nimalarga e'tibor berish lozim? Yosh ilmiy izlanuvchi sifatida mulohazalarimiz quyidagicha: Musiqiy merosni zamonga mos, texnika davri bilan hamomang talqin qilish, rivojlantirish; Adabiyotning nazm qonuniyatlarini yaxshi o'zlashtirib, ijodda qo'llash. Falsafiy tafakkurni badiiy ijodga singdirish; Teatr, kino va ommaviy tadbirdarda Mumtoz musiqa namunalarini qo'llash; Milliy musiqamizni dunyoga tanitishning eng maqbul yo'li albatta sifatli kinofilmlar suratga olib, ularni ovozlashtirishda mumtoz musiqamizdan foydalanish.

Yoshlarimiz musiqiy merosimizni amaliy ijo ro namunalarini o'zlashtirayotganliklari quvonarli hol. Maqsadimiz musiqiy savodli, ijo etayotgan asarini tub mohiyatini anglay oladigan va tinglovchiga yetkazib beradigan ijrochilar ko'paysin. Xalqaro festivallar va kino filmlarda yangraydigan milliy musiqamizdan butun dunyo xabar topsin, bahramand bo'lsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Durdona, M. (2021, May). About dutor and his performance. In Archive of Conferences (Vol. 25, No. 1, pp. 29-31).

Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 1(1), 196-199.

Nasritdinova, M., & Khokimova, K. (2021, October). Language is The mirror of the nation. In Archive of Conferences (pp. 92-94).

Nurmamatovich, D. S. (2022). The Role of Modern Technologies in the Learning Process. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(8), 6-9.

Nurullayevna, N. M., & Muhlis, T. (2021, December). Some problems and shortcomings in the higher education system. In Archive of Conferences (pp. 61-62).